

O'RTA MAXSUS VA PROFESSIONAL TA'LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O'TKAZISH UCHUN TERI-TANOSIL KASALLIKLARIDA HAMSHIRALIK ISHI FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta'lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Teri-tanosil kasalliklarida hamshiralik ishi talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo'llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me'yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko'nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me'yoriy asoslar

1.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi **"Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"**gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Teri kasalliklari

1. Teri kasalliklari fanining vazifasi, maqsadi va parazitlar kasalliklar;
2. Etiologiyasi yetarli aniqlanmagan va terining zamburug'li kasalliklarida hamshiralik ishi;
3. Terining yiringli va virusli kasalliklari.

Tanosil kasalliklari

- 4.Tanosil kasalliklarida va orttirilgan immun tanqisligi sindromida hamshiralik ishi

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstuktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Ulushi (%)	Testlar soni
1. Teri kasalliklari				
1. 1	Teri kasalliklari fanining vazifasi, maqsadi va parazitarni kasalliklar	Teri va tanosil kasalliklari fani to'g'risida tushunchalarni bilishi, maqsadi va asosiy vazifalari amaliyotda qo'llay olishi, klinik fanlar bilan bog'lanishini taqqoslay olishi, terining tuzilishi va uning vazifalari bilishi, teri kasalliklarini kelib chiqish sabablari bilish, terining morfologik elementlari va ularning turlari ajrata olish kerak, umumiy va mahalliy davolash usullari haqida tushuncha bilish, parazitarni kasalliklarni yuqish yo'llarini, davolash va profilaktikasini bilish kerak.	5 %	2 ta
1. 2	Etiologiyasi yetarli aniqlanmagan va terining zamburug'li kasalliklarida hamshiralik ishi.	Etiologiyasi yetarli aniqlanmagan teri kasalliklarini kelib chiqish sabablari, turlari, klinik belgilari, mavsumiylik va asoratlari bilish, qiyosiy tashxis o'tkazish, laborator tekshiruv usullari natijasini tahlil qilish kerak, kasallikni davolash va asoratlarni oldini olish, zamburug'li kasalliklarni keltirib chiqaruvchi omillar va ularni qo'zg'atuvchi zamburug' turlari ajrata olish kerak, kasalliklarni yuqish yo'llari va tarqalishi bilish, zamburug'li kasalliklar diagnostikasida zamonaviy laboratoriya usullari, kasalliklarni davolash usullari va profilaktikasi bilish kerak.	30 %	12 ta
1. 3	Terining yiringli va virusli kasalliklari	Terining yiringli kasalliklarini keltirib chiqaruvchi omillar, kasalliklarni klinik belgilari, asosiy morfologik elementlari va davolash usullari bilish, terining yiringli kasalliklarida qiyosiy tashxis o'tkazishni bilish, kasallikni asoratlarni va ularni oldini olish chora-tadbirlari bilish, terini virusli kasalliklarini keltirib chiqaruvchi sabablar, ularni qo'zg'atuvchisi va turlari ajratish kerak.	30 %	12 ta
2. Tanosil kasalliklari				
1. 4	Tanosil kasalliklaridada va	Zahmning kelib chiqish sabablari va uning qo'zg'atuvchisi haqida ma'lumot bilishi	35 %	14 ta

	orttirilgan immun tanqisligi sindromida hamshiralik ishi	zaxmning davrlari va undagi klinik belgilari, toshma turlari ajratishni, kasallikka moyil guruhlarini aniqlashni, so‘zak kasalligini kelib chiqish sabablari, qo‘zg‘atuvchisi, yuqish yo‘llari, erkaklar, ayollar va qizlar so‘zagi klinik belgilari va asoratlarini, umumiy, mahalliy va spetsifik davosi bilish, OIV va OITS haqida tushunchani, infeksiyasini yuqish yo‘llari va klinik belgilarini, OIV va OITS kasalliklari bilan og‘rigan bemorlardan anamnez yig‘ish va kasallik sababini aniqlash, OIV va OITS kasallilari bilan og‘rigan bemor va uning oila a‘zolari bilan shaxslar aro muloqat o‘tkazish, tibbiy hujjatlarni rasmiylashtirish, OIV-infeksiyasi tekshiruviga qon olish, kasallikka moyil guruhlarini aniqlash, OIV va OITS kasallilari bilan og‘rigan bemorni ijtimoiy qo‘llab quvvatlash va sanitar-targ‘ibot ishlarini olib borish.		
--	--	---	--	--

V. Baholanadigan kognitiv ko‘nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma’lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	25 %
2.	Qo‘llash	O‘zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta’limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	50 %
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog‘liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	25 %

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To‘rtta variantdan bittasi to‘g‘ri bo‘lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to‘g‘rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to‘g‘ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezonlari va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ta'limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo'shimcha 15 % vaqt beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi.

Ko'rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o'qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to'g'ri javobini aytishi mumkin emas.

X. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. L.Yu.Yusupova, H.S.Burixodjaeva "Kattalarda hamshiralik parvarishi" III qism, Toshkent, "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2014 yil

2. E.H.Eshboev, Ya.M.Fayziev. «Teri va tanosil kasalliklarida hamshiralik ishi» Toshkent, 2007 yil.

3. M.R.Tilavov, S.T.Tursunov. «Teri va tanosil kasalliklarida hamshiralik ishi» Toshkent, 2004 yil.